



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA IJODIY FIKRLASHNI  
RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'AT FANINING ROLI**

***Olimov Anvarjon Mamirovich***

*Lecturer, Department of Education, Kokand University*

*Email: aolimov321@gmail.com ORCID: 0009-0003-7395-5246*

***Nuriddinova Dilafro'z Davlatjon qizi***

*dilafruzluqmonova14@gmail.com*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at fanining o'quvchilar ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu maqolada zamonaviy ta'lim talablari, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, tasavvur qilish va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Tasviriy san'at darslarini faqat estetik faoliyat sifatida emas, balki bilish va tafakkur faoliyati bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida tashkil etish zarurligi asoslab berildi. Olingan natijalar tasviriy san'at darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishi hamda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

***Kalit so'zlar:*** *Ijodiy fikrlash, tasviriy san'at, boshlang'ich ta'lim, kreativ tafakkur, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur, ta'lim samaradorligi.*

***Abstrack:*** *This article is devoted to the study of the pedagogical potential of fine arts in the development of students' creative thinking in primary grades. This article is aimed at modern educational requirements, encouraging students to think independently, to imagine and to form skills in finding solutions to problem situations. The need to organize fine arts lessons not only as an aesthetic activity, but also as a process inextricably linked with cognitive and thinking activities is substantiated. The results obtained confirm that organizing fine arts lessons based*



*on an innovative approach increases educational effectiveness and has a positive effect on the personal development of students.*

**Keywords:** *Creative thinking, fine arts, primary education, creative thinking, interactive methods, problem-based learning, independent thinking, figurative thinking, educational effectiveness.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена изучению педагогического потенциала изобразительного искусства в развитии творческого мышления учащихся начальных классов. Статья ориентирована на современные образовательные требования, направленные на поощрение самостоятельного мышления, воображения и формирования навыков поиска решений проблемных ситуаций. Обосновывается необходимость организации уроков изобразительного искусства не только как эстетической деятельности, но и как процесса, неразрывно связанного с познавательной и мыслительной деятельностью. Полученные результаты подтверждают, что организация уроков изобразительного искусства на основе инновационного подхода повышает эффективность обучения и оказывает положительное влияние на личностное развитие учащихся.*

**Ключевые слова:** *Творческое мышление, изобразительное искусство, начальное образование, интерактивные методы, проблемно-ориентированное обучение, самостоятельное мышление, образное мышление, эффективность образования.*

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy ta'lim standartlari o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki o'quvchini mustaqil fikrlaydigan, kreativ yondashuvga ega hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishni talab etmoqda. Shu bois ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitishni shaxsga yo'naltirish bugungi pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.



O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. Jumladan, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident farmonida ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga o‘tish zarurligi alohida ta’kidlangan. Shuningdek, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonda ta’lim mazmunini yangilash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Mazkur farmon ta’lim jarayonini o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirish va darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur to‘g‘risida”gi Prezident qarorida boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab o‘quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil o‘rganish va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi qayd etilgan. Ushbu hujjatlarda dars jarayonini o‘qituvchi markazli modeldan o‘quvchi faoliyatiga asoslangan modelga o‘tkazish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tasavvur, mantiqiy fikrlash va ijodiy faoliyatning dastlabki ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ta’limni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmasdan, uni faol izlanish orqali egallasin. Davlat siyosatida ham yosh avlodning intellektual salohiyatini erta yoshdan rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur jarayonda tasviriy san’at fanining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat o‘quvchini nafaqat estetik didga o‘rgatadi, balki unda tasavvur,



obrazli fikrlash, muammoni hal qilish va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Rasm chizish jarayonida o'quvchi kuzatadi, solishtiradi, tahlil qiladi va o'z g'oyasini ifodalaydi. Shu sababli tasviriy san'at darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. O'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga mos fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga va o'z qarashlarini erkin ifodalashga o'rgatish kelajakda raqobatbardosh, tashabbuskor va intellektual yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida tasviriy san'at fanining pedagogik, psixologik hamda metodik imkoniyatlarini kompleks tarzda o'rganish, ushbu fan orqali o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik shart-sharoitlarni aniqlash va amaliyotga joriy etishga

mo'ljallangan metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tasviriy faoliyatning o'quvchi tafakkuriga ta'sir mexanizmlari, obrazli idrokning shakllanishi, tasavvur va fantaziyaning rivojlanish bosqichlari hamda o'quvchilarning mustaqil fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirishda darsni tashkil etishning optimal shakl va usullari aniqlanadi. Shu bilan birga, tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish va individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi metodik modelni ishlab chiqish ham tadqiqotning asosiy maqsadiga kiradi. Natijada tasviriy san'at fanining faqat estetik tarbiya vositasi emas, balki o'quvchilar tafakkurini rivojlantiruvchi kompleks pedagogik tizim ekanligini ilmiy jihatdan asoslash hamda uni boshlang'ich ta'lim amaliyotida samarali qo'llash yo'llarini ko'rsatish ko'zda tutiladi.

Mazkur maqolaning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilandi:



1. Ijodiy fikrlash kategoriyasining pedagogik-psixologik mazmunini tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlari (tasavvur, fantaziya, muammoli vaziyatni hal qilish, divergent fikrlash)ni ilmiy asosda yoritish.

2. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning kognitiv va emotsional rivojlanish xususiyatlarini o'rganish hamda mazkur davrda ijodiy faoliyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

3. Tasviriy san'at fanining ta'lim jarayonidagi o'rni va imkoniyatlarini ochib berish, uning rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalarini ilmiy jihatdan asoslash.

4. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlarni aniqlash va ularni tizimlashtirish.

5. Muammoli o'qitish, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlarga asoslangan dars modelini ishlab chiqish hamda uni metodik jihatdan asoslash.

6. O'quvchilarning tasviriy faoliyat jarayonida kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish va yangi obraz yaratish ko'nikmalarining shakllanish darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish.

7. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish orqali taklif etilgan metodikaning samaradorligini aniqlash, olingan natijalarni qiyosiy-pedagogik tahlil qilish.

Zamonaviy o'zbek pedagogikasida ham o'quvchini tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi emas, balki faol subyekt sifatida shakllantirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Milliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi natijasida o'quvchining mustaqil fikrlashi, muammoga nisbatan individual yondashuvi va ijodiy faoliyati ta'lim samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida talqin etilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchi shaxsining intellektual va estetik rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Aynan shu yoshda bola atrof-muhitni faol kuzatadi, tasavvur qiladi va o'z fikrini ifodalashga intiladi. Shuning uchun dars jarayonini faqat bilim berishga yo'naltirish yetarli emas, balki o'quvchini mustaqil



fikrlashga, izlanishga va yangi g'oya yaratishga undash zarur. Bu vazifani amalga oshirishda tasviriy san'at fani katta pedagogik imkoniyatlarga ega, chunki mazkur fan o'quvchining tasavvurini bevosita faoliyat orqali namoyon etishiga sharoit yaratadi. An'anaviy o'qitish jarayonida o'quvchilar ko'pincha tayyor namuna asosida ishlaydi, bu esa ijodiy fikrlashni cheklaydi. Interfaol metodlar esa o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Interfaol yondashuvda o'qituvchi ma'lumot beruvchi emas, balki o'quv faoliyatini tashkil etuvchi rahbar vazifasini bajaradi. Natijada o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki o'zi izlanib topadi, tahlil qiladi va yangi xulosaga keladi.

Tasviriy san'at darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, "Aqliy hujum" metodida o'quvchilarga ma'lum bir mavzu berilib, ular tasvirni qanday ifodalash mumkinligi haqida turli g'oyalarni ilgari suradi. Bu jarayon o'quvchining tasavvurini kengaytiradi va bir masalaga turli nuqtai nazardan qarash ko'nikmasini shakllantiradi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodida o'quvchilar birgalikda kompozitsiya tuzadi. Bunda ular o'zaro fikr almashadi, muhokama qiladi va umumiy qarorga keladi. Ushbu jarayon hamkorlikda ishlash, o'z fikrini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilish madaniyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga o'quvchilar bir-biridan yangi g'oyalarni o'rganadi, bu esa kreativ tafakkurning rivojlanishiga olib keladi.

"Klaster" metodidan foydalanish o'quvchilarga mavzu bo'yicha tasviriy yechimlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Masalan, "Tabiat manzarasi" mavzusida o'quvchilar daraxt, osmon, suv, hayvonlar kabi elementlarni ajratib, keyinchalik ularni kompozitsiyaga joylashtiradi. Bu usul tahlil va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Rol o'ynash" yoki obrazga kirish topshiriqlari ham tasviriy san'atda samarali hisoblanadi. O'quvchi o'zini rassom, dizayner yoki tabiat

hodisasi sifatida tasavvur qilib rasm chizadi. Bu jarayonda bola predmetni ko'rganicha emas, balki his qilganicha tasvirleydi. Natijada emotsional va obrazli tafakkur rivojlanadi.

Boshlang'ich maktab yoshi bolaning bilish faoliyati jadal rivojlanadigan davr hisoblanadi. Bu davrda o'quvchi atrof-muhitni ko'proq sezgi va tasavvur orqali



qabul qiladi. Mantiqiy fikrlash hali to'liq shakllanmaganligi sababli u obrazlar yordamida fikrlaydi. Shuning uchun o'quv jarayoni ko'rgazmali va amaliy faoliyatga asoslanganda samaraliroq bo'ladi. Mazkur yoshdagi bolalar faol harakat va hissiy taassurot orqali o'rganadi. Ular uzoq vaqt passiv tinglovchi bo'lib o'tirishga qiynaladi, lekin rasm chizish, yasash yoki bo'yash jarayonida uzoq vaqt

diqqatini saqlab qolishi mumkin. Demak, dars mazmunini faoliyatga bog'lash ularning psixologik ehtiyojiga mos keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida taqlid kuchli rivojlangan bo'ladi, ammo shu bilan birga fantaziya ham juda boy. Agar faqat namuna ko'rsatilib ishlatilsa, bola nusxa ko'chirishga o'rganadi. Erkin topshiriq berilganda esa u o'z tasavvurini namoyon etadi. Shu sababli o'qituvchi faoliyatni boshqaruvchi, ammo natijani cheklamaydigan yo'naltiruvchi rolni bajarishi zarur.

Bu davrda emotsional munosabat ham muhim. Bola o'z ishiga baho berilishiga sezgir bo'ladi. Rag'batlantirish ijodiy faollikni kuchaytiradi, keskin tanqid esa uni pasaytiradi. Demak, tasviriy san'at darslarida ijobiy psixologik muhit yaratish ijodiy fikrlash rivojining muhim sharti hisoblanadi. Tasviriy faoliyat kuzatish, tahlil qilish va yangi obraz yaratishdan iborat murakkab bilish jarayonidir. O'quvchi rasm chizishda predmetni sinchiklab ko'radi, uning muhim belgilarini ajratadi va ongida qayta quradi. Bu jarayon tafakkurning tahlil va sintez operatsiyalarini rivojlantiradi. Rasm ishlash davomida bola real predmetni umumlashtiradi. Masalan, daraxtni chizishda u har bir bargni emas, balki umumiy shaklni ifodalaydi. Bu esa abstrakt fikrlashning boshlang'ich bosqichidir. Shuningdek, kompozitsiya tuzish makon va nisbatni anglashni rivojlantiradi. Tasviriy san'at emotsional tafakkur bilan ham bog'liq. Bola rang tanlash orqali o'z munosabatini bildiradi. Issiq va sovuq ranglarni farqlash, kayfiyatni rang orqali ifodalash estetik idrokni shakllantiradi. Bu esa tafakkurning hissiy va mantiqiy tomonini uyg'un rivojlantiradi.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tasviriy san'at fanining roli nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Ushbu maqolaning tayyorlanish davomida tasviriy faoliyat faqat estetik didni



shakllantirish vositasi emas, balki o'quvchilarning tafakkur jarayonlarini faollashtiruvchi muhim pedagogik omil ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, darslarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tasavvurini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmon, 2019-yil 29-aprel. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son Farmon, 2020-yil 6-noyabr. – Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur to'g'risida" PQ-241-son Qaror, 2022- yil 11-may. – Toshkent.
4. Beghetto, R. A. (2021). Creativity in classrooms: A teacher's guide to fostering student innovation (2nd ed.).
5. Craft, A. (2021). Little c creativity and education: Foundations, contexts and implications. *Education Sciences*, 11(5), 234.
6. Runco, M. A., & Acar, S. (2021). Divergent thinking as an indicator of creative potential. *Creativity Research Journal*, 33(2), 1–10.
7. Lucas, B., & Spencer, E. (2020). Teaching creative thinking: Developing learners who generate ideas and think critically. Crown House Publishing.
8. Henriksen, D., Mishra, P., & Fisser, P. (2020). Infusing creativity and technology in 21st century education. *Educational Technology & Society*, 23(4), 1–13.
9. OECD. (2022). Creative minds, creative schools: Fostering creativity in education. OECD Publish